

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDAGI MUAMMOLARINING TARIXIY TAHLILI

Shirinova Firusa Inoyatovna.

NDU Tarix fakulteti katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillikning ilk yillarida maktabgacha ta’lim tizimi muammolari, ularning yechimi, bola huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro hujjatlar, shuningdek, mutaxassis xodimlar masalasidagi nomutanosibliklar, rejasiz tadbirlar, viloyatida maktabgacha yoshdagi bolalarni sog‘lomlashtirish, ularni maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha olib borilgan ishlar, Navoiy viloyatida Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini rivojlantirish istiqbollari, rejalar, takliflar xususida gapirilgan.

Tayanch iboralar: dastur, maktabgacha ta’lim muassasasi, sog‘liqni saqlash, bola huquqi, konvensiya, tayanch, ta’lim, xodim.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilgining ilk kunlaridan boshlab maktabgacha ta’lim sohasi muammolarini bartaraf etish va sohani rivojlantirish islohotlar zahirida amalga oshirib kelinmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilishga qaratilgan qator Farmon va qarorlar, parlament tomonidan tasdiqlanayotgan yangi qonunlar kelajagimiz bo‘lgan bolalarimiz ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. “Sog‘lom avlod uchun” dasturida ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida Navoiy viloyati maktabgacha ta’lim muassasalari bolalarini sog‘lomlashtirish va jismonan rivojlantirish borasida belgilangan ishlar bajarilib kelinmoqda. Mustaqillikning ilk yillaridanoq Xalq ta’limi vazirligi tomonidan maxsus maktabgacha tarbiya muassasalariga bo‘lgan ehtiyoj o‘rganilib, ularni rivojlantirish istiqbollari to‘g‘risida takliflar ishlab chiqilgan. Bog‘cha hamshira va shifokorlari malaka oshirish institutlarida tashkil qilingan kurslarda o‘z saviyasini oshirishgan. Ammo asosiy tadbirlar rejasiz amalga oshirilgan va nazoratdan chetda qolib ketgan. Navoiy viloyatida maktabgacha yoshdagi bolalarni sog‘lomlashtirish, ularni maktabdagi ta’limga puxta tayyorlash bo‘yicha olib borilgan ishlarda kamchiliklar borligi aniqlangan. Joylardagi sog‘liqni saqlash bo‘limlari xodimlari va mutaxassis shifokorlar tomonidan o‘tkazilgan bolalarni har yilgi yalpi ko‘rik natijalariga ko‘ra bolalarda mavjud kasalliklar va uning asoratlari holatlarining aniqlanishi kasallik turi bo‘yicha ko‘rsatkichlari tobora o‘sganligi qayd etilgan. Bolalarning 38 foizi sog‘lomlashtirish hamda tibbiy nazorat va yordamga muhtoj ekanligi aniqlandi.”[7.3-varaq.] Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari viloyatning shaharlar, shaharchalar va boshqa aholi punktlarida hali yetarlicha tashkil etilmagan, hududlarda maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarning qonunchilikda

belgilangan cheklash soni oshganda majburiy tartibda tashkil etilmaganligi, maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagogik kengashi va tajribali pedagog xodimlardan iborat emasligi, uning pedagogik faoliyati bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilishga doir vakolatlarni amalga oshiradigan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining kollegial boshqaruv organi mavjud emasligi kabi muammoli jarayonni 1992 – 1994 yillar uzluksiz ta’lim tizimidagi ayanchli holat sifatida sanab o‘tish mumkin.

Maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatining qonuniy asoslari 1992 yilda «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunni qabul qilinishi bilan boshlangan. 1992 yil BMT tomonidan qabul qilingan “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiya ham bolalar huquqlari, ularni himoyalash va tarbiyasi masalalarini nazorat qiladi. O‘zbekistonda bola huquqlarini ta’minlash va ularni har tomonlama himoya qilish uchun maxsus huquqiy baza shakllangan. Bola huquqlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi”[1.14-varaq.] va ta’lim sohasidagi boshqa huquqiy – me’yoriy hujjatlarida o‘z aksini topgan. O‘zbekiston Respublikasi 1992 yili BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi[1.43-varaq.] konvensiyasini ratifikatsiya qilishi bilan jamiyatimiz bola huquqlari naqadar, dolzarb masala ekanligini xalqaro miqyosda e’tirof etdi.

Mamlakatimizda bola huquqlarini ta’minlashda, qonunchilik hujjatlari va “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya” bilan bir qatorda, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”, “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro” pakt, “Xotin – qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konveniya”, kabi inson huquqlari bo‘yicha boshqa xalqaro shartnomalarga ham tayaniladi. Bugungi kungacha mamlakatimiz 70 dan ortiq inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarga qo‘shilgan. Mazkur xalqaro huquqiy hujjatlar orasida bola huquqlariga oid xalqaro normalar muhim ahamiyat kasb etadi.

1995 yil 22 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 441 – sonli - “Bolalarning maktabgacha tarbiya muassasalarida bo‘lishlari uchun ota – onalardan olinadigan haq miqdorlari to‘g‘risida”gi Qarori, 1997 yilda “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 22 iyundagi 313-sonli “Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini tashkil etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2007 yil 25 oktabrda 225 – sonli “Maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, uning uzluksizligiga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

qarorlari va farmoyishlariga, hamda o‘z ustaviga amal qiladi. [4.7-varaq.]deb ko‘rsatib o‘tilgan.

Maktabgacha ta’lim muassasasining ish rejimi va bolalarning u yerda qancha vaqt bo‘lishi maktabgacha ta’lim muassasasi ustavi va muassisning qarori bilan belgilanadi. Ta’lim muassasasida ovqatlanishni tashkil yetish maktabgacha ta’lim muassasasiga yuklanadi hamda O‘zbekiston Respublikasida tasdiqlangan sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq amalga oshiriladi. Bolalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish ham shtatdagi tibbiyot xodimlari, ham maktabgacha ta’lim muassasalariga biriktirilgan sog‘liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan ta’minlanadi, ular maktabgacha ta’lim muassasasi xodimlari bilan birgalikda bolalarning hayoti, sog‘lig‘i va jismoniy rivojlanishi, davolash – profilaktika tadbirlari o‘tkazilishi, sanitariya-gigiena normalariga, ovqatlanish rejimi va sifatiga rioya qilinishi uchun javob beradilar. Shu maqsadda 1992 yil 26 iyunda Vazirlar Mahkamasining 298-sonli Qarori, 1994 yil XTV va SSV larining 15 sentabr 492-sonli qo‘shma buyrug‘i chiqarilgan. Unda OITS bilan kasallanishni oldini olish chora tadbirlari belgilab berilgan.[7.3 varaq] Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy qo‘llab quvvatlash bo‘yicha “ishonch xizmati” tashkil etilgan. 1996 yil 2 yanvarda XTV va SSV larining qo‘shma buyrug‘ida Respublika reabilitatsiya va uy sharoitlarida davolanayotgan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maxsus dasturlarni tuzish bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish, hamda maktabgacha tarbiya muassasalarida bola tarbiyasi sharoitlarini yaxshilash, vaqti - vaqti bilan uni boshqarilishini tekshirib turish masalasi ko‘rib chiqilgan. 2006 yil fevral oyidagi respublika maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyalanuvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan tibbiy tahlil natijalarida bolalarda gepatit, oshqozon va buyrak kasalliklari bilan kasallangan bolalar aniqlangan.[7.3-varaq.]

Maktabgacha ta’lim muassasasining shtatdagi xodimlari sog‘liqni saqlash organlarida bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tadilar, buning uchun sarflanadigan xarajatlar davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘lar doirasida belgilanadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishni tashkil yetish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda belgilandi. Xalq ta’limi vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirliklarining 1996 yil 2 yanvarda imzolangan qo‘shma buyrug‘ida Respublika maktabgacha tarbiya muassasaoarida bolalarni sog‘lomlashtirish va jismonan rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan ishlar” to‘g‘risidagi qo‘shma qarorida bolalarni sog‘lomlashtirish uchun vazifalar to‘liq bajarilmayotganligi tahlil etilgan. Ayniqsa qishloq joylaridagi maktabgacha ta’lim muassasalari aholi punktlaridan uzoqdaligi uchun bunday muammolar mavjudligi, ularning yechimi izlanayotgani ta’kidlangan.[7.4-varaq.]

Maktabgacha ta’lim muassasasi ustavida qayd yetilgan o‘z maqsadlarini va vazifalarini bajarish uchun ota – onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar asosida oilaning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, asosiy ta’lim dasturlaridan tashqari qo‘shimcha pullik ta’lim xizmatlari ko‘rsatishga haqlidir. Bo‘sh o‘rinlar mavjud bo‘lgan taqdirda ushbu maktabgacha ta’lim muassasalari bolalarni xalq ta’limi muassasalari faoliyatini metodik ta’minlash va tashkil yetish bo‘limlarining yo‘llanmalari bo‘yicha shartnoma asosida qabul qilingan.

Maktabgacha ta’lim muassasasida guruhlar soni muassasaning quvvatidan va guruhlarining rejali to‘ldirilishidan kelib chiqib muassisa belgilanadi. Bu esa 2008 va 2011 yillardagi “Makabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi Konsepsiya bilan mustahkamlanib borilgan. 2001 yilda Respublikamizda 6742 ta maktabgacha ta’lim muassasalarida 608500 nafar o‘g‘il – qizlar tarbiyalangan. Ularda 65862 nafar pedagog, tarbiyachi va boshqa xodimlar xizmat qilgan.

Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun muntazam olib boriladigan tibbiy xizmat yo‘q, ish bilan band aholi bolalarini maktabgacha tizimda qamrab olish, ularni mutaxassis kadrlar bilan ta’minlash borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar anchagina edi. Navoiy kabi ko‘p millatli viloyatda maktabgacha ta’lim tizimi sohasidagi muammolar kelib chiqishi tabiiy hol hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan raqamga asosan yigirma yildan keyin Navoiy viloyatidagi holatni tahlil qiladigan bo‘lsak, viloyatda 2021 yil yakuni bo‘yicha jami 1140 ta Maktabgacha ta’lim tashkilotlari mavjud bo‘lib, shundan 210 tasi davlat va 930 tasi nodavlat (4 tasi xususiy, 71 tasi davlat – xususiy sheriklik asosida va 855 ta oilaviy) ta’lim muassasalaridan iborat edi.

Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 5 avgustdagi 372-sonli Qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi Nizomining qabul qilinishi, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimi sohada olib borilayotgan islohotlarni jadallashtirdi.[4] Viloyat maktabgacha ta’lim muassasalariga mutaxassis tayyorlab beradigan Navoiy pedagogika bilim yurti uchun qabul kvotalari oshirildi. Konimex, Uchquduq, Tomdi tumanlari uchun mutaxassis yetishmagani inobatga olinib qozoq guruhlariga o‘quvchilar qabul qilish imtiyozlari berildi. Metodist tarbiyachilar ishi ommalashtirildi. Ular maslahat uchun chekka hududlarga yuborilib, bitiruvchi talabalar amaliyot o‘tayotgan ta’lim muassasalarida ularning xohishiga ko‘ra ish bilan ta’minlandi, amaliyotchi talabalar stipendiyasi oyma – oy yetkazib berildi.[5.3-varaq.]

Maktabgacha ta’lim tizimi xalqaro huquqiy normalarga ham amal qiladi. Chunonchi, Bola huquqlariga oid xalqaro hujjatlar o‘z navbatida milliy qonunchilikni takomillashtirishga yordam bermoqda. O‘zbekistonda bola huquqlari va erkinliklari, ularni ta’minlash va himoya qilish masalalari 100 dan ortiq qonunlar bilan tartibga solindi. 2008

yil 7 yanvarda O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, bu me‘yoriy hujjat O‘zbekistonning huquq tarixida bola huquqlariga oid birinchi maxsus qonun bo‘ldi. Maqsadiga ko‘ra mazkur qonun bolaning huquqiy ahvolini belgilashga doir munosabatlarni tartibga solish, bola huquq va erkinliklarini yuridik kafolatlashga qaratilgan. Unga binoan, bola huquqlari va manfaatlarini amalga tatbiq etilishini ta‘minlaydigan asosiy ob‘ekt hisoblanadi.

Ta‘kidlash joizki, qonun normalarining yarmidan ko‘pi bola huquqlarining kafolatlarini belgilashga bag‘ishlangan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 – yilligi mamlakatimizda keng nishonlangan. 2008 – yilda O‘zbekiston parlamenti bola huquqlariga ta‘luqli 12 ta muhim xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qildiki, bularning barchasi butunjahon bola huquqlari himoyasiga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. BMT Bosh Assambleyasi 44-sessiyasida 1989 yil 20 noyabrda qabul qilingan – “Bola huquqlari to‘g‘risida” konvensiya.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 25 oktabr 225 – sonli “Maktabgacha ta‘lim sohasidagi normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.
3. Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi. 1997y. 29 avgust O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9-sessiyasi.
4. O‘zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta‘lim to‘g‘risidagi Nizomi. Uchinchi ming yillikning bolasi (tayanch dasturi). //Xalq ta‘limi, 2004. 6-son. B.27.
5. O‘zbekiston Milliy arxivi. M-26-fond, 1-ro‘yxat, 941-jild, 3- varaq.
6. O‘zbekiston Milliy arxivi. M-26-fond, 1-ro‘yxat, 53-jild, 13- varaq.
7. O‘zbekiston Respublikasi Ilmiy texnika va tibbiyot hujjatlari Davlat arxivi. M-372-fond, 1- ro‘yxat, 368-jild, 3-varaq.
8. Navoiy viloyat maktabgacha ta‘lim muassasalari boshqarmasi joriy arxivi. 2020 yilning 6-oylik hisoboti, 21-varaq.
9. Тахирова, М. А. (2021). Педагогические условия организации семинарских, лабораторных и практических занятий в вузе. Academic research in educational sciences, 2(3), 535-543.
10. Takhirova, M. (2020). Improving speech skills of students based on projection of educational objectives in Russian language classes. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(7), 8063-8075.

11. Abdullaeva, S. A., Lutfillaev, M. H., & Takhirova, M. A. (2020). VII. THE PROBLEMS OF FORMATION OF A SINGLE INFORMATION-EDUCATIONAL ENVIRONMENT. INNOVATIONS AND MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM, 155.

12. Abdullaeva, S. A., Lutfillaev, M. H., & Takhirova, M. A. (2020). IMPLEMENTATION OF PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS SOFTWARE IN THE EDUCATIONAL PROCESS AS A FACTOR OF PERFECTION OF PREVENTIVE WORK TO REDUCE THE GROWTH OF CRIMINAL AGENCIES AMONG STUDENTS. In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 8, pp. 155-161). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.

13. Masalieva, O. (2020). The role of Russian scientists in the source study of the bukhara khanate. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(5), 1540-1546.

14. Masalievna, M. O., & Muhitdinovich, J. Z. (2020). The Illumination of Bukhara Khans' Building Enterprise in the Some Historical Sources. Test Engineering and Management, 83(5-6), 1803-1811.

15. Масалиева, О. (2004). Амир Музаффарнинг тарихнавис ўғиллари. Мозийдан садо, (2), 22.

16. Masalieva, O. M. (2021, November). THE PRINCE OF BUKHARA SAYYID MUHAMMAD NASIR AND HIS SCIENTIFIC HERITAGE. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 182-185).

17. Khumora, Z., & Nazim, B. R. THE ROLE OF THE INTERNET IN THE SPREAD OF FAKE INFORMATION.

18. Жаббарова, Ю. (2022). KINSHIP TERMINOLOGY AS AN IMPORTANT ETHNOGRAPHIC AND HISTORICAL SOURCE. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ

19. ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА, 3(5). Marifjanovna, I. D. (2024). INNOVATION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYA ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ИССЛЕДОВАНИЯ, 1(1), 169-172.